

INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH MARKAZIY OSIYODA TARAQQIYOT OMILI SIFATIDA

Shirinov Anvar Qanoatovich, Buxoro davlat universiteti Yurisprudensiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrası dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd)

Email: anvarsh@yahoo.com (90)9646850

Annotatsiya: Mazkur maqolada Markaziy Osiyoda inson kapitalini rivojlantirish bo'yicha zamonaviy tendensiyalar tahlil etilgan. Inson taraqqiyoti sohasidagi turli dasturlarning implementatsiyasi va samarasi muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: inson kapitali, inson taraqqiyoti, ijtimoiy himoya, inson manfaati, barqaror rivojlanish, inson resurslari, sog'liqni saqlash, hamkorlik dasturi

HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT AS A FACTOR OF PROGRESS IN CENTRAL ASIA

Shirinov Anvar Qanoatovich, Associate prof. of the chair of "Jurisprudence, socio-political sciences", Doctor of Philosophical sciences (PhD)

Abstract: this article analyzes the current trends in the development of human capital in Central Asia. The implementation and effectiveness of various human development programs are discussed.

Keywords: human capital, human development, social protection, human interests, sustainable development, human resources, healthcare, partnership program

РАЗВИТИЕ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА КАК ФАКТОР ПРОГРЕССА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Ширинов Анвар Каноатович, доцент кафедры Юриспруденция, социально-политических наук Бухарского государственного университета, доктор философии по философским наукам (PhD)

Резюме: в данной статье анализируются современные тенденции развития человеческого капитала в Центральной Азии. Обсуждается имплементация и эффективность различных программ в области человеческого развития.

Ключевые слова: человеческий капитал, человеческое развитие, социальная защита, интересы человека, устойчивое развитие, человеческие ресурсы, здравоохранение, программа сотрудничества

Kirish

Inson taraqqiyoti tushunchasining shakllanishi miloddan avvalgi davrlarga borib taqaladi. Yunon olimlari Suqrot, Aflotun va Arastu davridan boshlab inson taraqqiyoti omiliga e'tibor berila boshlangan. Arastu davrida polislarda yashovchi kishilarning hayot tarzi o'rganilgan. U eng oliy ne'mat sifatida baxtni e'tirof etib, davlatning kishilar muhofazasi, salomatligi, madaniy huquqlarini ta'minlovchi tashkilot deb ataydi [1]. Sharq Uyg'onish davrida Markaziy Osiyoning yetuk mutafakkirlari Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino asarlarining asosiy mavzusi inson muammolari bo'lgan. Forobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida inson muammosini tadqiq qilgan. Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro davrida ham inson taraqqiyoti masalalari o'rganilgan. Aholini himoyalovchi, uning farovon hayotini ta'minlovchi, kuchli, adolatli hukmdor doimo qadrlangan. A. Navoiyning "Xamsasi"ga kiruvchi "Saddi Iskandariy" asarida odil podshoh va fozil fuqarolarning munosabatlari aks etgan.

Muruvvat barcha bermakdur, yemak yo'q,

Futuvvat barcha qilmakdur, demak yo'q [3].

Ma'rifatparvarlar davrida inson, uning xavfsizligi muammolari falsafiy jihatdan tadqiq etilib, fransuz olimi J.J. Russo, xalqning baxt-saodati va farovonligi masalalarini o'rgangan. Nemis mutafakkiri I. Kantning qayd etishicha "insonning taraqqiy etishini belgilab beruvchi muassasalar qatorida ta'lim, fan va madaniyat sohalarining ahamiyati bor, unda doimo bunyodkor ibtido ustundir" [4]. Nemis faylasufi O. Shpengler inson va zamonaviy texnologiyalarning munosabatlari inson manfaatlarini ta'minlashga qaratilganligini falsafiy tadqiq etgan [5].

Qayd etilgan tadqiqotchilarning fikricha bu konsepsiya inson taraqqiyotining ikki jihatini:

1. Sog'liqni saqlash va ta'lim sohasidagi imkoniyatlarni batafsil o'rganadi;

2. Bu imkoniyatlarni ijtimoiy-siyosiy va madaniy sohalarda, ishda, dam olishda qo‘llashni nazarda tutadi.

T. Shults tomonidan ishlab chiqilgan “inson kapitali” tushunchasida “inson kapitali” omilining ajratilishi ta’lim, fan va sog‘liqni saqlashning iqtisodiy ahamiyati ochib berilgan. Inson kapitali – bu ishlab chiqarishning vositasi va uzoq muddatga mo‘ljallangan predmet kabi ikki vazifani bajaruvchi insondagi bilim va malakalarning majmuidir. Inson kapitali nazariyasining L. Turou va boshqalar tomonidan tanqid qilinishi inson kapitali ta’limoti tarafdorlarini mukammal strategiyalarni ishlab chiqishga undab, natijada inson resurslariga ko‘maklashish yo‘nalishi vujudga keldi [6].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Inson taraqqiyoti zamonaviy yondashuvlar xorijiy olimlar tomonidan keng o‘rganib kelinmoqda. Jumladan, inson taraqqiyoti, kapitali, farovonlik masalasini barqaror rivojlanishdagi tendensiyalarni tahlil etish kontekstida M.Haq, S.Anand va A.Sen, S.Fukuda-Parr inson taraqqiyoti indekslarini, F.Starr mintaqadagi inson taraqqiyotini retrospektiv asoslarini, E.Olvors madaniy muassasalar holatini, P.Frankopan inson taraqqiyotining kliodinamikasini, B. Valsh, L.De Florio va M.Bernxem inson taraqqiyotida oila muammolarini, V. Brayen, A.Masgrov va J. Pauerslar inson taraqqiyotida raqamli texnologiyalar va “yashil iqtisodiyot”ni hamda J. Tilak inson kapitalining rivojlanishida ta’lim tizimini, S. Mexrotra inson kapitalidagi to‘siqlarni, S. Peyruz taraqqiyot dilemmalarini, X. Seilo inson farovonligida tenglik, ijtimoiy muhofaza tizimini, E. Stanton inson kapitali va tenglik rolini ko‘rib chiqqanlar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligining 2023 yil 1 iyunda tashkil etilganligi muhim hodisa bo‘ldi [7].

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda analiz va sintez, kompleks yondashuv, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, retrospektiv tahlil, dialektik, sinergetik kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan. Bularning asosida umumiy muammoni shakllantirishga harakat qilingan.

Tahlil va natijalar.

Inson taraqqiyoti bu kishilarga sog'lom va bunyodkor hayotni ta'minlovchi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muhitni yaratish va ularga hayotning turli sohalarida keng tanlov imkoniyatini yaratishdir. Bu tanlov zamon o'tishi bilan o'zgarishi mumkin, lekin taraqqiyotning barcha bosqichlarida uzoq va sog'lom hayotni yashash, bilim olishga bo'lgan ehtiyoj, munosib hayotni yashash uchun resurslarga intilish saqlanib qoladi. Inson taraqqiyoti iqtisodiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik va madaniy jihatlarida namoyon bo'ladi.

2023 yilda mazkur vaziyat quyidagicha tus olgan [8].

Jadval 1.1.

Mamlakatning o'rn. ITI qiymati	O'rtacha umr uzoqligi (yil)	Inson taraqqiyoti indeksi (HDI)	Aholi jon boshiga YaIM miqdori (XQP AQSh doll.)
126. Tojikiston (0.685)	71.2	0.679	4807
94. Turkmaniston (0.745)	69.4	0.744	12860
106. O'zbekiston (0.727)	72,7	0.727	8056
67. Qozog'iston (0.811)	69.4.0	0.802	22587
117. Qirg'iziston (0.692)	71.0	0.701	4782

2023-yil O'zbekistonda "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb e'lon qilingandi. "O'zbekiston – 2030" strategiyasini amalga oshirishni boshladi. O'zbekistonda 2024 yilda "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash" dasturi bo'yicha bunyodkorlik ishlari olib borilmoqda. "Yoshlar va biznesni qo'llab quvvatlash" dasturi doirasida mahallada amalga oshiriladigan ishlarning ro'yxatini olib taqqoslaymiz. Jizzax viloyatining Manas aholi punktida boshlangan qurilish ishlari mamlakatimizning barcha hududlariga tarqaldi. 2023 yil 21 fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"gi farmoni qabul qilindi [9].

Inson taraqqiyoti indeksi-majmuaviy ko'rsatkichi ishlab chiqilib, u quyidagilarni qamrab oladi: tug'ilganda kutilayotgan hayotning davomiyligini aks

etuvchi hayotning uzoqligi indeksi; aholining ta'lim muassasalari bilan qamrab olinganligini tavsiflovchi ta'lim indeksi va savodlilik darajasi; Yalpi Milliy Mahsulot ko'rsatkichiga asoslangan holdagi YaMM indeksi. tinchlik bo'yicha Nobel mukofotining 2020 yilda Jahon Oziq-ovqat dasturiga (WFP) berilishi misolida BRMLarning Covid-19 pandemiyasi sharoitida har qachongidan ham dolzarblashganligini ko'ramiz.

XX asrning yutuqlari bo'lgan biotexnologiyalar, biometrika, simsiz texnologiyalar, DNK tahlili, muqobil energiya bilan ishlovchi dvigatellar, kompyuter, lazer, genlar ustida olib borilgan tadqiqotlar, nanotexnologiyalar, prosessor va kompyuter chiplari, raqamli qurilmalar, koinot tadqiqotlari, optik tola, skanerli texnologiyalarning kashf etilishi negizida insonning taraqqiyotini ta'minlash maqsadi turibdi. Bu texnologiyalarni rivojlantirish insonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini belgilab, jahon hamjamiyatini xavotirga solayotgan qashshoqlik, turli kasalliklarga qarshi kurashni osonlashtiradi.

O'zbekiston Jahon Banki bilan 2022 yilda 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga hamohang 2026 yilgacha Mamlakat dasturini shakllantirdi. Jahon banki hozirgi kunda mamlakatda 5.26 mlrd AQSh dollariga teng loyihalarni tatbiq etmoqda [10].

Prezident Sh. Mirziyoyevning 2020 yil 25 noyabrdagi "Jahon bankining Xalqaro taraqqiyot uyushmasi va Osiyo infratuzilmaviy investisiyalari banki ishtirokida "Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan 2020 yil so'nggi choragidan boshlab respublikaning 5 ta viloyatida turli loyihalar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda Kioto Protokolining Musaffo rivojlanish mexanizmi doirasida "O'ztransgaz" aksiyadorlik kompaniyasining kompressor stansiyalarida tabiiy gaz sizib chiqishini kamaytirish loyihasi natijasida jahon bozorida chiqindilar chiqarishning sertifikatlangan qisqartirishlarini sotishdan olingan ajratmalar hisobiga ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish va atrof-muhitni muhofaza qilishning moliyalashtirilmoqda. BMT TD Karbon jamg'armasining Yashil investitsiyalar sxemasini amalga oshirish bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi qo'mita tashkil etildi.

2018 yil 27 noyabrda BMT shafe'ligida Orolbo'yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo'yicha ko'ptomonlama sheriklik asosida trast fondi tuzildi. 2018 yilda Sh.M. Mirziyoyev Orol fojiasi oqibatlarini bartaraf etishda Orolbo'yi hududini Ekologik innovasiya va texnologiyalar zonasi, deb e'lon qilish masalasini ko'rib chiqish haqida to'xtalgan. "Qozog'iston-2050" strategiyasida 2050 yilga borib rivojlangan iqtisod va umumiy mehnat imkoniyatlari asosida farovonlik jamiyatini yaratish lozimligi qayd etiladi

Turkmanistonda ham so'nggi yillarda islohotlar sur'ati tezlashmoqda. Orol falokatining oldini olish maqsadida oxirgi 20 yil davomida Yashil belbog' milliy dasturi asosida 90 mln. daraxt o'tqazildi. 2016 yilda Global Barqaror transport konferensiyasi Turkmanistonda bo'lib o'tdi.

Inson taraqqiyotining muhim shartlaridan biri munosib mehnat sharoitlarini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Xalqaro Mehnat Tashkilotiga 1992 yil mart oyida a'zo bo'lib, uning 18 ta konvensiyasini ratifikasiya qilmoqda. Bu konvensiyalarni implementasiya qilish bo'yicha vazirliklar, ishchilar va ish beruvchilarni qamrab olgan idoralararo komissiya faoliyat ko'rsatadi. "Ishchilarning vakillari to'g'risida"gi 1971 yilgi 135-sonli konvensiya, "Jamoalar shartnomalari to'g'risida"gi 1981 yilgi 154-sonli konvensiya ham imzolangan. 2013-2020 yillarda O'zbekiston bolalar va majburiy mehnatni bartaraf etishda katta natijalarga erishdi.

BMT 1990 yildan boshlab inson taraqqiyoti bo'yicha hisobotlarni nashr qilib, bu barqaror taraqqiyotni ta'minlash kafolatlari sifatida faol ijtimoiy-iqtisodiy siyosat olib borishga xizmat qilmoqda. 1993 yildan jahon miqyosida inson taraqqiyotining ko'rsatkichi - inson taraqqiyoti indeksi ishlatilmoqda. 1994 yildan boshlab inson xavfsizligi taraqqiyot nuqtai nazaridan tahlil qilinib 1999, 2005 yillarda Markaziy Osiyoning besh mamlakatini qamragan ma'ruzalar tayyorlangan. Inson taraqqiyoti quyidagi omillarga bevosita bog'liqdir: 1) teng huquqlilik; 2) ijtimoiy jihatdan minimal darajada kerak bo'lgan barcha qulayliklarga ega bo'lishlari (toza suv masalasi bo'yicha); 3) ta'limga bo'lgan teng imkoniyatlarning tan olinishi; 4) teng taqsimlanish.

2021 yilda Afgʻonistonda rekord hosil – 6,200 tonnadan ziyod geroinning yetishtirilishi chegaradosh mamlakatlarga salbiy taʼsir qildi. 2022 yilning 14 dekabrda Tojikiston tashabbusiga koʻra Bosh Assambleya 2025 yilni “Muzliklarni himoya qilish xalqaro yili” deb eʼlon qilindi.

Ijobiy tendensiya sifatida Turkmaniston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasi 2008 yil 19 dekabrda qabul qilgan “Energiya manbalarining ishonchli va barqaror tranziti va uning xalqaro hamkorlikni ogʻishmay rivojlantirishni taʼminlashdagi roli” rezolyusiyasini koʻrsatishimiz mumkin. Bunda samarali transchegaraviy suv boshqaruvi, konstruktiv dialoglarni aniqlab oladigan muzokaralar va hamkorlik strategiyalarini amalga oshirish talab qilinadi. 2017 va 2021 yillarda Turkmaniston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasida barqaror transport-tranzit tizimlarini shakllantirish maqsadida rezolyusiyalar qabul qilindi.

Mintaqa davlatlarining inson manfaatlarini taʼminlashda taraqqiyot strategiyalari ilmiy asoslangan. Markaziy Osiyoda inson taraqqiyoti konsepsiyasini amalga oshirishning istiqbollari, Yangi Oʻzbekistonda BMTning Barqaror Rivojlanish Maqsadlari jamiyatning ijtimoiy-maʼnaviy taraqqiyoti yoʻnalishida tahlil etilgan. Mintaqadagi gender tengligini rivojlantirish, oziq-ovqat xavfsizligi, tengsizlikni kamaytirishga asoslangan islohotlar asoslab berilgan. U inson taraqqiyotini taʼminlash, qashshoqlik va savodsizlik bilan kurashish, taʼlim va gender tengligini taʼminlashga moʻljallangan. Bu BMTning 2000 yilda qabul qilgan Mingyillik deklaratsiyasida (Bosh Assambleyaning 55/2 sonli rezolyusiyasi) qayd etilib, unda 189 davlat yetakchilari, jumladan, Oʻzbekiston inson taraqqiyotini taʼminlovchi quyidagi 8 asosiy maqsadga yetishda kerak boʻlgan ishlarni qilish majburiyatini olganlar: 1) oʻta kamtaʼminlanganlik va ochlikni tugatish; 2) umumiy boshlangʻich taʼlimni taʼminlash; 3) ayollar va erkaklar tengligini ragʻbatlantirish, xotin-qizlarning huquq imkoniyatlarini kengaytirish; 4) bolalar oʻlimini qisqartirish; 5) onalar sogʻligʻini yaxshilash; 6) OITS, bezgak va boshqa kasalliklarga qarshi kurash; 7) ekologik barqarorlikni taʼminlash; 8) rivojlanish yoʻlida global hamkorlikni shakllantirish.

Hozirgi zamon O'zbekistonga bir vaqtning o'zida ikki murakkab jarayonni boshdan kechiruvchi davlat rolini yukladi:

1. Markazlashgan rejali iqtisodiyotga ega bo'lgan ikkinchi darajali mintaqadan bozor iqtisodiyotiga ega ijtimoiy davlatlar qatoriga o'tish.

2. Mamlakatni jahon iqtisodiy tizimiga qo'shuvchi jarayon globallashtirishga xos qiyinchilik va talablarga moslashish.

Iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga harakat qilayotgan mintaqalar mamlakatlarida global jahon tizimiga qo'shilish jarayoni kechmoqda. Globallashtirish jarayoni O'zbekistonni rivojlangan mamlakatlar tomonidan ishlab chiqilgan umumjahon turmush andozalariga keltirish jarayoniga jalb qiladi.

Mintaqada inson taraqqiyoti masalalarini amalga oshirishda ommaviy axborot vositalarining ahamiyati katta. Tobora globallashtirayotgan dunyoda erkin ommaviy axborot vositalarining ahamiyati oshib bormoqda. Qirg'iziston, Qozog'iston va O'zbekistonda ommaviy axborot vositalarining erkinligi qonunlar yordamida mustahkamlangan. Turkmaniston va Tojikistonda senzuraning kuchli ekanligi sezilmoqda. Bu mamlakatlarda nodavlat axborot vositalarining faoliyati yo'lga qo'yilmagan. Qozog'istonda nodavlat ommaviy axborot vositalarining ishi yaxshi yo'lga qo'yilgan. O'zbekistonda "Elektron ommaviy axborot vositalari milliy assosiasiyasi", "Mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoatchilik fondi" ta'sis etilgan.

Muhokama

XXI asrning boshida insoniyat global va mintaqaviy ekologik muammolarni yechishda yagona yondashuv va muvofiqlashtirilgan harakatlar zarurligini tushunib yetdi. Markaziy Osiyoda BMTning tabiatni muhofaza qilish bo'yicha konvensiyalariga qo'shilish, milliy va mintaqaviy harakat dasturlari, transchegaraviy loyihalarni amalga oshirish chora-tadbirlari o'zining samarasini bermoqda. Mintaqada amalga oshirilayotgan turli loyihalar GEF (Global Ecologic Facility), WWF (World Wild Faune), USAID, INTAS, Copernicus, ISTC va boshqa xalqaro tashkilotlar yordamida bioxilma-xillik, uning ahvoli haqida ma'lumotlar to'plandi.

Davlatlararo suvdan foydalanish bo'yicha muammolarni davlatlar o'rtasida ikki tomonlama shartnomalar tuzish orqali hal qilish eng samarador usuldir. Suvni iste'mol qiluvchi davlatlar tomonidan birgalikda ishlatiladigan suv xo'jaligi ob'ektlarining ekspluatatsiyasi va ularga texnik xizmat ko'rsatishdagi xarajatlarni qoplamaslik, mojarolarga, davlatlar o'rtasida ishonchning pasayishiga sabab bo'lishi mumkin. Bu muammolarni hal qilishda 2002 yil sentyabrida Yoxannesburgda bo'lgan Barqaror Rivojlanish bo'yicha xalqaro sammitda Daniyaning taklifi bilan qabul qilingan Suv Tashabbusini inobatga olish kerak. Suvdan foydalanishning samaradorligi va barqarorligini takomillashtirish tabiiy resurslarni, bioxilma-xillikni 2030 yilgacha saqlab qolish nazarda tutildi.

2020 yilda O'zbekiston 2021-2025 yillarga mo'ljallangan BMT Barqaror rivojlanish hamkorligi bo'yicha Hamkorlik Dasturini qabul qildi. 2021 yilda O'zbekiston mintaqada ilk davlat sifatida 3 yilga mo'ljallangan 235 mln. AQSh doll.ga teng o'z suveren bondlarini joylashtirdi. Bondlar BRMlardan Ta'lim (BRM - 4), Suvdan foydalanish (6), Sog'liqni saqlash (3), Yashil transport tizimlari (BRM 11), Havoning ifloslanishining nazorati (11), Tabiiy zahiralarni boshqarish (15) va Yashil energiya (7) sohalariga yo'naltirilganligi qayd etiladi. Hamkorlar tomonidan amalga oshirilgan sa'y-harakatlarga ko'ra silga qarshi preparatlar bilan ta'minlash, sil tashxis qiladigan laboratoriyalar tarmog'ini yaratish, davolashning samaradorligini oshirishda muayyan yutuqlarga erishildi.

Hozirgi kunda mintaqa mamlakatlari oldida XIPK (HIPC – Heavily Indebted and Poor Countries Initiative- Qashshoq Davlatlar uchun Tashabbus) dasturida qatnashish masalasi dolzarbdir. Bu mintaqadagi davlatlardan Qirg'izistondagi murakkab vaziyatni yumshatishga mo'ljallangan. Dastur qashshoq davlatlarning qarzidan voz kechishni nazarda tutadi. Qirg'izistonning 1992-2022 yillarda tashqi qarzi 9.2 mlrd. AQSh dol.dan ziyoddir. Bu ko'rsatkich O'zbekistonda 39,6, Qozog'istonda 161, Tojikistonda 3.7, va Turkmanistonda 1,35 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan. Turkmaniston BMT Bosh Assambleyasining 72-sammitida "BRMga erishish maqsadida barcha transport turlari aloqasini rivojlantirish

buyicha rezolyusiyani qabul qilish va BMT darajasida Barqaror transport yilini e'lon qilish goyasini ilgari surdi.

Mintaqa davlatlari inson manfaatlariga mo'ljallangan siyosat va rejalarda yetakchi rolni o'ynashi kerak. Gender tengligi, ayollarni qo'llab-quvvatlash, OIV/OITS, bezgak va boshqa kasalliklarga qarshi kurash, suv va sanitariya muammolarini milliy strategiyalarga tatbiq qilish, atrof-muhit barqarorligini ta'minlash, rivojlanish uchun mintaqaviy va global sherikchilikni kengaytirish mintaqamamlakatlarining XXI asrdagi taraqqiyotini ta'minlaydi.

Xulosa

Inson taraqqiyoti konsepsiyasida aholining yoppasiga ta'lim muassasalariga jalb qilinishi lozimligi nazarda tutilsa, Markaziy Osiyo uchun keyingi bosqich bo'lgan o'rta maktabdan keyingi ta'lim masalalari dolzarbdir. Aholining barcha qatlamlarining maorifi, hayot darajasi, tabiiy zahiralarga egalik qilish va undan foydalanishi mintaqadavlatlari uchun dolzarbdir. Mintaqadagi davlatlarning rivojlanish strategiyalari BMTning BRMLarni qabul qilgan holda ta'lim tizimi, sog'liqni saqlash va kadrlarning malakasini oshirish kabi masalalarni hal qilishlari inson kapitalining rivojlanishiga zamin hozirlaydi. Xalqaro hamjamiyat, investorlar, nodavlat tashkilotlari, erkin ommaviy axborot vositalarining mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining inson taraqqiyoti masalalaridagi uzviy hamkorligi talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аристотель. Этика, политика, риторика, афоризмы. –Москва: Эксмо, 2023. –С. 123.
2. Форобий. Фозил одамлар шахри. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2018. –Б. 68.
3. Алишер Навоий. Танланган асарлар. 6- том. Фавойид ул кибар. – Тошкент: Фан, 2003. –Б.234
4. Руссо Ж.Ж. Халқ бахти ҳақида // Жаҳон адабиёти. (Рус тилидан А. Абдуқодиров таржимаси). – Тошкент: 2012. – №8(184). – Б. 156-166.

5. Spengler O. Der Mensch und die Technik: Beitrag zu einer Philosophie des Lebens. –Berlin: Edition Holzinger. Taschenbuch Berliner Ausgabe, 2016, 4 Auflage. –P. 92.
6. Mehrotra S. Seizing the Demographic Dividend. Policies to Achieve Inclusive Growth in India. – Cambridge: Cambridge University Press, 2015. – P. 422.
7. <https://ihma.uz/uz/agency-category>
8. Conceição Pedro. Human development report 2023/2024. Breaking the gridlock. Reimagining cooperation in a polarized world. 2024. UNDP, New York. P. 324
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-37-son “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida 21.02.2024 yildagi farmoni
10. Uzbekistan and World Bank group to boost cooperation with new country partnership framework // www.worldbank.org/en/news/press-release/2022/05/24/uzbekistan-and-world-bank-group-to-boost-cooperation
11. Sobirovich, T. B. (2021). The implementation of human indicator reforms in Uzbekistan. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(9), 197-202.
12. Sobirovich, T. B. (2020). The criterion of human indicators in development and renewals in Uzbekistan. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR), 6(8), 509-511.16:52
13. Sobirovich, T. B. (2020). The criterion of human indicators in development and renewals in Uzbekistan. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR), 6(8), 509-511
14. Shirinov, A. Q. (2021). Earth overshoot day and the case of central Asian countries (Human development vs. running out of resources). Science and Education, 2(2), 28-33.

15. Shirinov, A. Q. (2021). THE FULFILMENT OF THE COMMITMENTS OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT GOALS'IN THE 21ST ENTURY. Academic research in educational sciences, 2(6), 1144-1153.
16. Qanoatovich, S. A. (2021). Human Development of Human Capital as Per Reforms in Central Asia. Asian Journal of Basic Science & Research, 3(3), 93-97.